

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES



**"FILOLOGIYA, METODIKA, TARJIMASHUNOSLIK: ZAMONAVIY FANNING  
DOLZARB M ASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMİY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**THE PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE ON "PHILOLOGY, METHODOLOGY AND TRANSLATION STUDIES:  
CURRENT ISSUES OF MODERN SCIENCE"**



**SAMARQAND  
08 - 09 - NOYABR, 2024 - YIL  
SAMARKAND  
NOVEMBER 08 - 09, 2024**

JA Inkwell Publishing House  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

“FILOLOGIYA, METODIKA, TARJIMASHUNOSLIK: ZAMONAVIY  
FANNING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-  
AMALIY ANJUMAN  
**MATERIALLARI**  
2024-yil 8-9 noyabr

**CONFERENCE PROCEEDINGS**  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
“PHILOLOGY, METHODOLOGY, TRANSLATION STUDIES: CURRENT  
ISSUES OF MODERN SCIENCE”

November 8-9, 2024

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**  
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
“ФИЛОЛОГИЯ, МЕТОДОЛОГИЯ, ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ:  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ”  
8-9 ноября 2024 г.

Samarkand 2024

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
PHILOLOGY, METHODOLOGY, TRANSLATION STUDIES: CURRENT ISSUES OF  
MODERN SCIENCE**

**ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV**

**Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, konferensiya ishtirokchilari!**

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadimiy va navqiron Samarqand shahriga va Samarqand davlat chet tillar institutiga xush kelibsiz!

Ushbu konferensiya bejizga “Filologiya, metodika, tarjimashunoslik: Zamonaviy fanning dolzarb masalalari” deb nomlanmagan, chunki hozirgi paytda ushbu sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlar nafaqat jahonda, balki respublikamizdagи ushbu sohalarning yetakchi olimlari tomonidan ham ko’zga ko’rinarli ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolarini o’rganish hozirgi paytdagi tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan desak mubolag'a bo’lmaydi. Shu bois respublikamizda ham tilshunoslikda lingvistik tadqiqotlar va nazariyalarni o’rganish, zamonaviy lingvistikada madaniyatlararo muloqot nazariyasi hamda tarjima mohiyatini tahlil qilish, lingvistik tadqiqotlar va tarjima san’ati metodologiyasi kabi masalalarni keng tatbiq etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda xorijiy tillarni o’qitish metodikasida til va sifatli ta’limni birgalikdagi uyg'unlashuvi aynan pirovardida samarali natijalarga erishilishiga turki bo’lishi shubhasiz.

Samarqand davlat chet tillar instituti tashkil topganligining 30 yillik yubileyi munosabati bilan “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi tomonidan tashkil etilgan “Filologiya, metodika, tarjimashunoslik: Zamonaviy fanning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham ushbu masalalarda olimlarning yuqorida ta’kidlab o’tilgan sohalardagi so’nggi yangilik va ma'lumotlarni o’zaro muhokama qilishlariga yaxshi bir imkoniyat beradi degan fikrdaman. Konferensiya seksiyalarida tilshunoslikda lingvistik tadqiqotlar va nazariyalar sharhi; zamonaviy lingvistikada madaniyatlararo muloqot nazariyasi hamda tarjima mohiyati; o’qitish metodikasida til va sifatli ta’lim uyg'unlashuvi; lingvistik tadqiqotlar va tarjima san’ati metodologiyasi kabi mavzular qizg'in muhokama qilinishi ko’zda tutilgan.

Konferensiyada Amerika Qo’shma Shtatlari, Germaniya, Ispaniya, Hindiston, Koreya, Yaponiya, Misr Arab Respublikasi, Rossiya, Turkiya kabi xorijiy davlatlar bilan birgalikda yaqin qo’shnilarimiz bo’lgan Qirg’iziston, Tojikiston va Qozog’iston kabi davlatlarning oliv ta’lim muassasalaridan ko’plab professor-olimlar, ilmiy-tadqiqotchilar va xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar ishtirok etmoqda. Shuningdek, xalqaro konferensiya doirasidagi masalalar muhokamasiga bag’ishlangan 200 dan ortiq ilmiy maqola kelib tushgan. Shulardan 50 dan ortiq ma’ruzalar xorijiy ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan. Mazkur konferensiya institut yubileyi bilan bir kunda o’tkazilishi konferensiya ko’rkining jozibadorligini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy konferensiya tahririyatiga kelib tushgan maqolalardan ishtirokchilarning xorijiy til, madaniyat, tarjima hamda metodika sohalaridagi fikr-mulohazalarini o’rgangan holda quyidagi soha mutaxassislar va professorlarini alohida qayd etish lozimki, ularning hozirgi davrda sohani aynan O’zbekiston sharoitida rivojlantirish masalalariga qaratilgan fikr va mulohazalari e’tiborga molikdir. Xususan, professorlar *Safarov Shaxriyor Safarovich, Mamatov Abdimurod Eshonqulovich, Kulmamatov D.S., Asad Ahmad, Misbah Parveen, Gulnazarzoda Jilo Buri, Mr.Ralph Schusler, Carlos Martin-Peñasco Medina, Bozorov S. , Kitabayeva A. Shirokova N.L. Maxkamova G. Muller-Buck Renatte Tubengan va Yoqubov J.A.* kabilar shular jumlasidandir.

Konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilab, ishtirokchilarga, xususan xorijiy mamlakatlardan va respublikamizning oliv ta’lim muassasalaridan tashrif buyurgan barcha ishtirokchilarga o’z minnatdorchiligidagi bildiraman.

Konferensiya ishini ochiq deb e’lon qilishga ruxsat bergaysizlar!!

***SamDCHTI rektori  
f.f.n., dotsent  
B.Xolikov***

## ORTIQCHALIK VA TEJAMKORLIK TAMOYILLARINING O'ZARO MUNOSABATI

Z. Rasulov<sup>1</sup>

*Annotatsiya:*

Maqolada tejamkorlik tamoyilining tilning tizimli faoliyatini taddiq qilishdagi o'rni, mazkur tamoyilning ilmiy nazariy tavsifi shakllanishi tarixi, tilning tadrijiy rivojida tejamkorlik tamoyilining o'rni haqidagi nazariy g'oyalari, til ta'lmini osonlashtirish maqsadida uning tarkibini soddalashtirishga yo'naltirilgan urinishlar va shunga mos holda qarama-qarshi nazariyalar xususida so'z boradi. Voqelikning kategorial tartiblashuvi qandaydir tasodify yoki erkin tanlov natijasi bo'lmasdan, balki ma'lum turdag'i psixologik tamoyillar ta'sirida yuzaga kelishi isbotlanadi.

*Kalit so'zlar:* nutqiy vositalarni tejash, tilning tadrijiy rivoji, so'z shakllarining qisqarishi, soddalashuv, til sathlari, kognitiv tejamkorlik tamoyili, axborot uzatish, sinergetik taraqqiyot, olamni idrok etish, lisoniy manzara, tejamkorlik va ortiqchalik munosabati.

doi: <https://doi.org/10.2024/tw83ic49>

Ma'lumki, tejamkorlik tamoyilining asosida nutqiy faoliyat jarayonida axborotni tinglovchiga tez va aniq yetkazish harakati turadi. Ushbu harakatning samarasini til sohiblarining xotira ko'lami va idrok qobiliyati bilan belgilanadi. Bunday holatda lisoniy tejamkorlik bevosita tildagi ortiqchalikka duch keladi. Masalan, lug'at zahirasida ma'no jihatidan batamom o'xshash birliklar (dubletlar, sinonimlar) mavjud. Ushbu turdag'i "boylik"ni ko'rgan ba'zi tilshunoslar "til haddan ziyyod ortiqchalikka ega, u shu bois til egalarining o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga tezda va butunlay moslasha olmaydi" qabilidagi xulosa chiqarishgacha borib yetganlar. Bizningcha, frantsuz olimining ushbu xulosasi til tizimining imkoniyatlarini kamsitishdan boshqa narsa emas. Til tabiatan ortiqchalikni bartaraf etish yoki uni chetlab o'tish imkoniyatiga ega. Ortiqchalik esa, haqiqatdan ham tizimga, fikr ifodasiga aniqlik kiritishga to'siq qo'yadi. Shuning bilan birgalikda ortiqchalik til tizimi uchun qonuniy va tabiiy ravishda hosil bo'ladigan hodisadir.

Eng muhimi ortiqchalik ba'zan zarurat tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bunday ortiqchalikka K.Cherrining ta'biricha, talaffuz yoki yozuvdagi noaniqliklar hamda til tizimining mukammal emasligi sabab tug'diradi. Aniqlikka intilish esa nutqda ortiqcha elementlar paydo bo'lishiga undaydi. Ortiqchalik qo'shimcha lisoniy belgilarning faollashuviga olib keladi.

Til tizimidagi ortiqchalik faqat tabiatan mavjud bo'lmasdan, balki talab qilinganda so'zlovchining o'zi tomonidan ham hosil qilinishi mumkin. Bu, ayniqsa, uzatilayotgan axborotni alohida ta'kidlash ehtiyoji tug'ilganida yoki kommunikantlarda shuni istaganlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Axborotning ortiqchaligi, bundan tashqari, ba'zan ma'noni ma'lum qilishdagi to'siqni bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Biroq ortiqchalikdan foydalanish me'yoriga amal qilish talab qilinadi, aks holda ushbu to'siqning ko'lami haddan ziyyod kengayib ketishi kuzatiladi. Demak, ortiqchalikdan voz kechishi amali ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Ortiqchalikning yuzaga kelishi to'g'ridan – to'g'ri tejamkorlik tamoyilining faollashuviga olib keladi. Shu jihatdan ozarbayjon olimi M.I.Yusifovning "tejamkorlik ortiqcha unsurlarning paydo bo'lishi va bartaraf etilishi bilan bog'liq" degan qaydini o'rini

<sup>1</sup> Rasulov Zubaydullo Izomovich, Buxoro davlat universiteti filologiya fanlari doktori, professor

ekanligini aytmoqchimiz. Tejamlilik va ortiqchalilikning o'zaro munosabati boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etilgan.

Ushbu ikki hodisa o'rtasida mavjud bo'lgan aloqani isbotlash niyatida bo'lgan J.Vandries so'zning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi natijasida ifoda quvvati kamayishi ham tizimdan chiqib ketishiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, so'z kommunikativ qiymatini yo'qotadi, ortiqcha "yuk"ga aylanadi. Bundan ko'rindiki, olim lisoniy tejamkorlik hodisasining tahlil ko'lamenti birmuncha kengaytiradi.

Jahondagi barcha tillarda ortiqchalik u yoki bu darajada namoyon bo'ladi va bu xildagi ortiqchalik tilning "hayoti"ni, uning muloqot vositasi bo'lishini ta'minlovchi zahiradir. Ammo ortiqchalik tamoyilining turli tillar tizimiga ta'sirini bir xil deb bo'lmaydi. Tadqiqotchilar olib borishgan tahlillar natijasi ko'rsatishicha, masalan, ingliz tili boshqa tillarga nisbatan ko'proq "tejamkor". Ba'zi olimlar ingliz tilida tejamkorlik darajasi 70% dan kam ekanligini qayd etadilar, D.Kristalning hisob-kitobicha, ushbu miqdor 50-60% dan oshmaydi. O'zbek tili miqyosida hozircha bunday tahlil olib borilmagan bo'lsa-da, lekin ona tilimizda tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillari uzliksiz munosabatda ekanligining guvohimiz. Bunday imkoniyatdan foydalanish naqadar samarali ekanligi Alisher Navoiy hazratlari "Muhokamatu-l-Lug'atayn" asarida ta'kidlaganidan xabardormiz. Mazkur asarning yangi nashrini tayyorlagan Q.Sodiqov ko'rsatib o'tganidek, Navoiy fonetikada turkiy tilning boshqa tillar, xususan, forschada uchramaydigan o'ziga yarasha tovushlari, semantikada nozik ma'noli hatti-harakatlarni bildiruvchi fe'llar va ularning mazmunga ta'siri, sinonimlarning poetikadagi o'rni, stilistik xususiyatlari, so'zlarning qo'shma'noligi singari jihatlarga e'tibor qaratadi. Masalan, tejamlilikning morfologiya sathida amal qilishini ayrim qo'shimchalarining ko'pma'noliligida ko'rish mumkin. Alisher Navoiy bayon qilganidek, turkiydagi -či qo'shimchasi mansab bildiruvchi so'zlarni yasaydi: qorči, suči, xizānači, kerāk-yaragči, čäwdanči, nayzači singari. Ushbu qo'shimcha hunar va peshani bildiruvchi so'zlarni yashashda ham ishtirok etadi: qušči, barsči, qoruqči, tamgači, jibači, yorgači, xalvači, kemači, qoyči. Bundan tashqari, qush hunaridan ham bunday atamalar bor: qazči, quwči, turnači, kiyikči, tawušqanči.

Xullas, tejamkorlik va ortiqchalikning me'yorini belgilash masalasi tilshunoslik fanining azaliy va "kun tartibi"dan hech tushmaydigan masalalaridandir. O'tgan asrning oxirlarida R.Yakobson "hozirgi paytda ortiqchalikni bartaraf etish va undan foydalanish mo'ljalini olgan jarayonlarni inobatga olmaydigan lingvistik tadqiqotni tasavvur qilish qiyin", degan fikrni aytib ketgan ekan. Ushbu fikrning tasdig'ini zamona viy tilshunoslik misolida ham ko'rishimiz mumkin, albatta. Ayniqsa, tilshunoslik fanida antropotsentrik yondashuvning ommalashuvi bunday "azaliy" muammolarga inson omili nuqtai nazaridan qarashni taqozo etmoqda.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

- [1]. Алишер Навоий. Мұхокамату-л-Лұғатайн. -Т.:Академнашр, 2017. -1286.
- [2]. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. -Т.:Фан, 1988. -93б.
- [3]. Соколовский Ю.А. Избыточность и отсечении информации как средство нивелирования семантических помех // Слово в языке и речи. -Нальчик, 1982. -С.87-94.
- [4]. Черри К. Человек и информация. -М.:Связь, 1972. -С.53.
- [5]. Юсифов М.И. Экономия в системе языка (на материале азербайджанского языка). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. -Баку, 1978. -24с.
- [6]. Crystal D. English as a Global Language. -Cambridge: CUP, 2010. -P.147.

**MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENTS**

<b>I SHO'BA – SECTION I – СЕКЦИЯ I</b> <b>TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK TADQIQOTLAR VA NAZARIYALAR SHARHI</b> <b>OVERVIEW OF LINGUISTIC STUDIES AND THEORIES IN LINGUISTICS</b> <b>ОБЗОР ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ТЕОРИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ</b>			
1.	Шахриер Сафаров	Условия сдвига лексического значения глаголов	6-7
2.	Zubaydullo Rasulov	Ortiqchalik va tejamkorik tamoyillarining o'zaro munosabati	8-9
3.	Müller-Buck Renatte Tubengan, Jumayev O.K., Anorqulov S.I.	Sintaktik qurilmalar tadqiqining nazariy asoslari to'g'risida	10-12
4.	Ralph Shchusler Jr.	A comparative analysis of the “-ing” suffix in English and Uzbek: divergent purposes in similar prominence	13-15
5.	Наргиза Кобилова	Принцип изменчивости и экономии языка	16-19
6.	Akram Shermatov	Ingliz va o'zbek tillarida aniqlik hodisasini ifodalashda grammaticalizatsiyaning o'tmi	20-21
7.	A.K.Kitibayeva, A.A.Shermatov	Some Comments About Discourse Deixis in Literary Text (in the Materials of English and Uzbek Languages)	22-24
8.	B.X.Rizaev	Aspektologiyaga tegishli ayrim tadqiqotlarning qisqa tahlili	25-27
9.	M.B.Begmatov	Miqdor va daraja formasida keluvchi ilovali elementlar	28-29
10.	Shahobiddin Ashurov, Sevinch Mukhiddinova	The Harmony of the Concepts of Time and Language	30-34
11.	Jamoliddin Yakubov	Fransuz tilida “istak” kategoriyasini leksik-semantik guruhlarga ajratishning o'ziga xos kognitiv xususiyatlari	35-40
12.	N.J.Sulaymanova	Baho kategoriyasi tadqiqi	41-45
13.	Нарзикулова Ф.Б.	Природа имиджа в контексте философского учения восточных мыслителей	46-48
14.	Музафарова Л.У.	Особенности лингвистического выражения структуры знания “Performing Arts” в художественном тексте	49-51
15.	Вазира Холматова	Нутқий тузилмалар семантикасида коннотация ҳодисаси	52-54
16.	Наргиза Сулейманова	Тил бирликларнинг номинатив мақоми хусусида	55-57
17.	Mirzo Tursunov	Peculiar Features of Media-Discourse as a Linguistic Discourse Type	58-61
18.	Shermatov A.A., Haydarova S.M.	Emotsiyalar va ularning tilda madaniy jihatdan aniqlangan jarayonlashuvi	62-64
19.	Шодиев С.Э.	Кўшма гап қолипида фраземаларнинг деривацион тамоиллари ва таҳлили	65-67
20.	Luiza Muzafarova, Dilnora Baxtiyorova	Argumentation as a Type of Persuasive Discourse	68-71
21.	Mamlakatxon Nurmatova	Oilaviy munosabatlarda muloqotning samarali jihatlari	72-73
22.	Bakhtiyor Gafurov	Typological Characteristics of Language in Connection with the Nature of the Significant Function of Phonemes	74-76
23.	N.Djumaeva	Some Considerations on Artistic Discourse	77-79
24.	Fotima Vaxidova	Terminosistemaning konseptual mohiyati	80-81
25.	Ziyoda Ergasheva	Erkaklarga xos og'zaki xulq-atvorning leksik xususiyatlari	82-85
26.	Aziz Latipov	Davomiylilik fazasining asosiy xususiyatlari	86-89
27.	Nafruza Azizova	Somatik frazeologizmlarning metaforik ma'nosi	90-92
28.	Nodira Saidova	Navoiy nasrining talqinida mahoratli olim uslubi	93-95
29.	Gavhar Asadova	Nomustaql ega vazifasidagi ikki valentli birliklar komponent tahlili	96-98
30.	Sanjar Eshchonov, Jamila Djumabayeva	Biznes nutqi masalasi va uning o'ziga xos jihatlari	99-102
31.	Farkhad Yuldashev	Grammatik kategoriyalarni sistematik tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish	103-105
32.	Izzatulla Akramov	An Aphorism as a Whole Statement: Systems of Organization Integrating Semantic Components	106-110
33.	Дилафруз Ходжаева	Scientific-Theoretical Perspectives on the Classification of Terms	111-112
34.	Dilshoda Sindarovna	The Emergence and Development of Views on Paremiology in Linguistics	113-115
35.	Dilnoza Aliyeva, Munisa Bobojonova	Some Linguistic Issues of Communicative Aspect of Speech	116-117
36.	Gulnara Ruzmatova	The Role of Pragmatic Competence in Second Language Acquisition	118-120
37.	Gulnoza Zakhidova, Firuza Abdurakhmonova	Phonetics and Phonology: A Comparative Study of English and Uzbek	121-123
38.	Bahora Sadikova	Antinomy and Correlation in Italian Paremiology: Semantic Analysis	124-126
39.	Oyjamol Khudoyberdieva	Demonstrative Semantics of Dance Terms in English and Uzbek	127-129
40.	Maftuna Shoymardonova	The Role of Detective Works in a Person's Life	130-132
41.	Shokhista Karshieva	Problems of Learning Syntactic Behavior of Ergative Verbs in English Language	133-135
42.	Dildora Azizova	Lexicographic Analysis of Toponyms	136-139
43.	Farzona Nasreddinova	Jane Eyre: A Portrait of Independence and Strength	140-141
44.	А.Э.Маматов	Теоретические предпосылки социолингвистического анализа фразеологических единиц	142-146
45.	Маргуба Рахимова	Художественные средства изображения персонажей в романе А. Рой «Бог мелочай»	147-149
46.	С.М.Джалилова	Цветовые образы в испанском языке: этнолингвистические аспекты	150-151

# INDEX REFERENCE

## of the international scientific and practical conference “Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science”

<b>Title of the article</b>	<b><i>ORTIQCHALIK VA TEJAMKORIK TAMOYILLARINING O'ZARO MUNOSABATI</i></b>
<b>Author(s)</b>	<b><i>Zubaydullo Rasulov</i></b>
<b>Date</b>	<b>8-9.11.2024</b>
<b>DOI</b>	<b><a href="https://doi.org/10.2024/tw831c49">https://doi.org/10.2024/tw831c49</a></b>

### ***JA Inkwell Publishing***

The main information of the article and the pdf format have been saved on the official website of the international publishing house "JA Inkwell Publishing".



### ***Google Scholar***

The article has been indexed in Google Scholar, the main platform for increasing the citation of articles.



### ***ZENODO***

The article has been placed on the European Open Data International Database.



### ***OpenAire***

The article was published into the international scientific database, recognized as one of the primary databases in Europe and extensively utilized in over 35 countries.

